



Semantic and Stylistic Analysis of the “Na‘t” Category in Fozil as-Samarroiyy’s Ma‘ānī an-Naḥw

Davron Abdullayev,

Lecturer, Department of Languages-1, Oriental University

Abstract. This article examines the category of the adjective (na‘t) in Arabic based on the work “Ma‘ānī an-Naḥw” by the prominent linguist Fāḍil Ṣāliḥ as-Sāmarrā’ī. The study analyzes the transformation of na‘t from a purely grammatical structure into a semantic and stylistic device. Special attention is given to the ten communicative functions identified by the author, including specification, clarification, praise, disparagement, compassion, emphasis, generalization, detailing, ambiguity, and indicating the speaker’s awareness. Examples from the Qur’an and classical Arabic discourse are analyzed to demonstrate these functions.

Keywords: *Fāḍil as-Sāmarrā’ī, Ma‘ānī an-Naḥw, Arabic linguistics, adjective, grammar, semantics, rhetoric, Qur’anic style.*

**FOZIL AS-SAMARROIYNING “MA’ONiy AN-NAHV” ASARIDA “NA’T”
KATEGORIYASINING SEMANTIK-USLUBIY TAHLILI**

Davron Abdullayev,

Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli tilshunos olim Fozil Solih as-Samarroiyning “Ma’oniy an-nahv” asari asosida arab tilidagi “na’t” (sifatlash) kategoriyasi tadqiq qilingan. Tadqiqotda na’tning shunchaki grammatik birlikdan semantik (ma’naviy) hamda uslubiy vositaga aylanish jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada muallif tomonidan ajratib ko‘rsatilgan sifatlashning o‘nta xos kommunikativ vazifasi — xoslash, aniqlashtirish, madh, yomonlash, rahm-shafqat bildirish, ta’kidlash, umumlashtirish, tafsilot berish, noaniqlik qoldirish hamda so‘zlovchining xabardorligini





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

ko'rsatish kabi holatlar muhokama qilinadi. Qur'oni Karim oyatlari va klassik arab nutqidan keltirilgan misollar tahliliga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Fozil as-Samarroi, Ma'oni an-nahv, arab tilshunosligi, na't, grammatika, semantika, balog'at, Qur'on uslubi.*

Kirish

Zamonaviy arab tilshunosligida grammatik hodisalarni nafaqat sintaktik qolip, balki ma'no ifodalashning nozik vositasi sifatida o'rganish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Bu borada iroqlik mashhur olim Fozil Solih as-Samarroiyning "Ma'ani an-Nahw" (Nahv ma'nolari) asari alohida ahamiyatga ega. Ushbu asar an'anaviy nahv qoidalarini balog'at ilmi bilan uyg'unlashtirgan holda, so'zlovchining kommunikativ maqsadi va matnning pragmatik jihatlarini ochib beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — Samarroi qarashlari asosida "na't" kategoriyasining matndagi vazifalarini hamda uning semantik-uslubiy xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism

Na't — o'zidan oldingi so'zni to'ldirib keluvchi ergashuvchi bo'lib, uning sifatlaridan birini bayon qiladi. Masalan: (مررت برجل كريم) — saxiy bir odamning yonidan o'tdim.

Yoki u bog'liq bo'lgan narsaning sifatlaridan birini bayon qiladi, bu sababiy na't deb ataladi. Masalan: (مررت برجل كريم أبوه) — otasi saxiy bo'lgan bir odamning yonidan o'tdim.

Yoki Alloh taoloning so'zi: {ربنا أخرجنا من هذه القرية الظالم أهلها} — "Ey Parvardigorimiz, bizni ahli zolim bo'lgan bu qishloqdan chiqar".

U quyidagi muhim maqsadlar uchun keladi:

1. التخصيص — xoslash.

Xoslashning ma'nosi — noaniq so'zlarda mavjud bo'lgan umumiylikni kamaytirish.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Masalan: (مررت برجل طويل) — bo‘yi uzun bir odamning yonidan o‘tdim.

Chunki “رجل” (odam) so‘zi umumiy bo‘lib, turning barcha a‘zolarini qamrab oladi. Agar “طويل” (uzun bo‘yli) desang, kalta va uzun bo‘lmaganlarni chiqarib tashlab, umumiylikni kamaytirasan.

Agar (مررت برجل طويل أسمر) — uzun bo‘yli, qoramag‘iz odam desang, yanada xoslashtirasan.

Agar (مررت برجل طويل أسمر أعرج) — uzun bo‘yli, qoramag‘iz, cho‘loq odam desang, yana ham xoslashtirasan. Shu tarzda davom etadi. (Samirroi, 181/3)

2. التوضيح — aniqlashtirish.

Aniqlashtirishning ma‘nosi — aniq so‘zlardagi umumiylikni yo‘qotish.

Masalan: (مررت بمحمد الخياط) — tikuvchi Muhammadning yonidan o‘tdim.

Chunki Muhammad ismli bir necha kishi bo‘lishi mumkin. “الخياط” (tikuvchi) desang, umumiylikni yo‘qotib, maqsad aniq bo‘ladi.

Yana: (اشتريت من الخباز الأعرج) — cho‘loq novvoydan sotib oldim.

Bir nechta novvoy bo‘lishi mumkin, “cho‘loq” deb aytish orqali umumiylik ketadi va maqsad aniq bo‘ladi.

3. الثناء والمدح — maqtash va madh.

Bu maqsad agar sifatlanayotgan narsa tinglovchiga ma‘lum bo‘lsa va aniqlashtirishga ehtiyoj bo‘lmasa ishlatiladi.

Masalan: {سبح اسم ربك الأعلى} — “Eng oliy Parvardigoring nomini pokla”.

Chunki undan pastroq boshqa Parvardigor yo‘q. “الأعلى” aniqlash uchun emas, balki ulug‘lash va madh qilish uchun zikr qilingan.

Yana: {فسبح باسم ربك العظيم} — “Ulug‘ Parvardigoring nomini pokla”.

Yoki: (جاء خالد القائد المظفر) — g‘olib qo‘mondon Xolid keldi.

Bu bilan boshqa Xoliddan ajratish emas, balki ulug‘lash va maqtash maqsad qilinadi.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Madh va maqtash noaniq soʻz boʻlishi ham boʻlishi mumkin, aniq soʻzlarda boʻlgani kabi.

Masalan: {إنه لقول رسول كريم ذي قوة عند ذي العرش مكين}

4. الذم والتحقير — yomonlash va tahqirlash.

Bu, sifatlanayotgan shaxs tinglovchiga maʼlum boʻlsa va uni boshqa kishidan ajratish maqsad qilinmasa.

Masalan: (أعوذ بالله من الشيطان الرجيم) — quvilgan shaytondan Allohga sigʻinaman.

Yana: (مررت بمسيلة الكذاب) — yolgʻonchi Musaylama yonidan oʻtdim.

Yoki: (لا تسمع إلى سالم الخبيث اللئيم) — pastkash, yaramas Solimga quloq solma.

Bu bilan uni shu ismli boshqasidan ajratish emas, balki yomonlash va tahqirlash maqsad qilinadi.

Yomonlash va tahqirlash nakiralarda ham boʻlishi mumkin.

Masalan: {وما هو بقول شيطان رجيم}

Chunki quvilmagan boshqa shayton yoʻq, “رجيم” ajratish uchun emas.

Yoki: (دونكم رجلا خائنا لئيم) — mana sizlarga xoin, pastkash bir odam. (Samirroi, 182/3)

5. الترحم — rahm-shafqat bildirish.

Masalan: (مررت بعباس البائس) — bechora Abbos yonidan oʻtdim.

Yoki: (ياويح إبراهيم المسكين) — voy bechora Ibrohim.

Yoki: (ارحموا هذا الرجل الفقير الضائع) — bu kambagʻal, adashgan odamga rahm qilinglar.

Bu noaniq soʻzlarda ham boʻladi: (أرحموا رجلا بائسا مضيعا) — bechora, yoʻqolgan bir odamga rahm qilinglar.

6. التأكيد — taʼkidlash.

(نحو: أمس الدابر لا يعود)

Masalan: (أمس الدابر لا يعود) — oʻtgan kecha qaytmaydi.

Chunki har bir “kecha” oʻtib ketgandir.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Yoki: {فإذا نفخ في الصور نفخة واحدة}

“Bir” ma’nosi “نفخة” so‘zining o‘zidan ham tushuniladi.

Yoki: {وقال الله لا تتخذوا إلهين اثنين}

“ikkita” — “ilohlar” so‘zini ta’kidlash uchun sifat.

Yoki: (إن غدا القابل قريب) — kelajak kun yaqin, chunki har bir “ertaga” keluvchidir.

7. التعميم — umumlashtirish.

(إن الله يرزق عباده الطائعين والعاصين)

Masalan: (إن الله يرزق عباده الطائعين والعاصين) — Alloh bandalarini itoatkor ham, osiy ham rizqlantiradi.

Yoki: (إن الله يحشر الناس الأولين والآخرين) — Alloh avvalgi va keyingilarni jamlaydi.

Yoki: (يقبل الله من عباده صالح الأعمال الكثير والقليل) — Alloh bandalaridan ko‘pini ham, ozini ham qabul qiladi.

Yoki: {ولا ينفقون نفقة صغيرة ولا كبيرة ولا يقطعون واديا إلا كتب لهم}

8. التفصيل — tafsilotni aytish.

Masalan: (مررت بثلاثة رجال، كاتب وشاعر وفقهه) — uch odam yonidan o‘tdim: yozuvchi, shoir va faqih.

Yoki: (مررت برجلين عربي وعجمي) — ikki odam: biri arab, biri ajam.

Yoki: (رأيت رجلين طويلا وقصيرا) — ikki odamni ko‘rdim: biri uzun, biri kalta.

9. الإبهام — noaniqlik qoldirish.

Masalan, do‘stingga: (أتصدقت بقليل أم كثير؟) — ozmi yoki ko‘p sadaqa qilding? desa, u: (تصدقت بصدقة قليلة أو كثيرة) — oz yoki ko‘p sadaqa qildim, deydi.

Yoki: (هل كتبت له رسالة حسنة) desang – yaxshi xat yozdingmi, desang, u: (كتبت له رسالة حسنة أو سيئة) — yaxshi yoki yomon xat yozdim, deydi. Maqsadi — senga noaniq qoldirish.

10. So‘ngra, na’t ba’zan tinglovchiga so‘zlovchi sifatlanayotgan shaxsning holidan xabardor ekanini bildirish uchun ham keltiriladi.

كأن يقول لك صاحبك هل رأيت خالدا فتقول: نعم رأيت خالدا البائع داره والمفارق أهله





JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

Masalan, do'sting: "Xolidni ko'rdingmi?" desa, sen: "Ha, uyini sotgan va ahlidan ajralgan Xolidni ko'rdim" deysan.

Bu bilan sen do'stingga uning yashirayotgan holatlaridan ham xabardor ekaningni bildirmoqchi bo'lasan. (Samirroi, 183/3)

(Sobbon hoshiyasida) shunday kelgan: Ibn Xabbazdan rivoyat qilinadiki, na't tinglovchiga so'zlovchi sifatlanayotgan shaxsning holidan xabardor ekanini bildirish uchun keladi. Masalan: (جاء قاضي بلدك الكريم الفقيه) — shahringning saxiy, faqih qozisi keldi. Bu yerda faqat maqtash emas, balki tinglovchiga uning sifatlaridan xabardor ekaningni bildirish maqsad qilinadi. (Samirroi, 184/3)

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Fozil as-Samarroiyning na't haqidagi qarashlari arab nahv ilmda muhim semantik-uslubiy yondashuvni namoyon etadi. Muallif na'tning ko'p funksiyali tabiati va uning nutqdagi kommunikativ rolini aniq misollar orqali ochib beradi. Ushbu yondashuv arab tilshunosligida grammatik birliklarni ma'no va nutq faoliyati bilan bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. السَّامِرَّائِي، فاضل صالح. معاني النحو. عمَّان: دار الفكر، 1420 هـ / 2000 م.
2. ابن يعيش، موفق الدين يعيش بن علي. شرح المفصل. القاهرة: إدارة الطباعة المنيرية، د.ت. 8) (أجزاء).
3. ابن عقيل، بهاء الدين عبد الله. شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك. تحقيق: محمد محيي الدين عبد الحميد. القاهرة: دار إحياء الكتب العربية، 1964 م. (4 أجزاء).
4. الأزهرى، خالد بن عبد الله. التصريح على التوضيح. القاهرة: دار إحياء الكتب العربية، 1955 م. (جزءان).
5. السيوطي، جلال الدين عبد الرحمن. همع الهوامع في شرح جمع الجوامع. مصر: مطبعة السعادة، 1959 م. (جزءان).

